

**MA’NAVIYATLI YOSHLAR, O‘ZBEKISTON KELAJAGI....!
NODAVLAT TA’LIM MUASSASASI****Eshquvatova Maftuna***Iqtisidiyot va pedagogika universiteti**Xorijiy tillar fakulteti O‘qituvchisi***Xudoyqulova Mahina Ashurali qizi***FTO ‘I 193-24 talabasi*

Annotasiya: har bir millat, davlat va jamiyatning taqdiri va kelajagi, albatta, mamlakatning salohiyatli, yuksalayotgan kuchlariga bog‘liqdir. Yurtimizda yaratib berilayotgan har bir imkoniyatdan unumli foydalanib, bimalol o‘z iqtidorlarini namoyon etib, yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilish yo‘lidadirlar va erishmoqdalar. Misol uchun: sport, til o‘rganish, kitobxonlik, san‘at va madaniyat, harbiy sohalarda va boshqa milliyligimizni anglatuvchi sohalarda zafarlarni qo‘lga kiritmoqdalar.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, Sport, Yangi O‘zbekiston, salohiyatli yoshlar, ma’rifat, kitobxon.

Kirish.

Ma’lumki, 21-asr ilm-fan, bio va nanotexnologiyalar, yangi materiallar axborot kommunikatsiya va texnologiyalar davri bo‘lib tarixga kirdi. Bu esa mamlakatimizning ma’naviyatli yoshlariga katta imkoniyatni taqdim etmoqda, ya’ni ular bu orqali Yangi O‘zbekiston va uchinchi Renesansni barpo etmoqdalar. Buning uchun ular har bir sohada o‘z malakalarini yuqori darajada rivojlantirib, tarixiy asoslarga ega bo‘lgan mamlakatimizdagi mavjud vaziyatning o‘zi taqazo etayotgan xalqimizning asriy orzu intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan islohotlarga ega bo‘lishlari kerak. Ko‘pchilik yoshlarimiz ham azaldan urf bo‘lgan sohalardan biri "Sport" sohasida nechchi ming yillik natijalarni yangilagan holda zafarlarga erishib kelmoqda. Buning muhim sabablari:

birinchidan, so‘nggi yillarda sport sohasida juda ko‘p etibor qaratilib yangi-yangi imkoniyatlar yaratilmoqda... !

Ikkinchidan: yurtimizning yoshlarida bu sohaga qiziqish ortib tobora ularning saflari kengayib bormoqda.

Uchinchidan: eng quvonarlisi oldingi yilgiga qaraganda so‘nggi yillarda ota-onalarning o‘zlari farzandlarining sog‘lom va komil inson bo‘lishi, yurtimiz ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shishlari uchun o‘zlarining ixtiyorlari bilan farzandlarini murabbiylar qo‘liga topshirmoqda. Buning natijasi, albatta, sanoqsiz yutuqlar bilan isbotlanmoqda. Xususan yaqin yillarda va joriy 2024-yilda "Parij 2024" musobaqasida ishtirok etgan sport ustalarimiz mamlakatimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarib jahon markazida mathiyamizni baralla kuylab O‘zbekiston nomini dunyoga tanitidilar va O‘zbekistonning ma’naviyatli yoshlari nimalarga qodir ekanliklarini takroriy ravishda isbotladilar. Shuningdek nafaqat

sport sohasida, balki yana davlatimizning rivojlanishi, xavfsizligi, xalqimizning osuda hayot kechirishi uchun asosiy kuch qudrati bo‘lmish harbiy sohalarda ham yoshlarimiz Amur Temur, Abu Ali Ibn Sino, Islom Karimov, Mirzo Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, Temur Malik, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Farobiy, Al-Xorazmiy, Farididdin Attor, Farg‘oniy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarimizning tajribali yo‘llaridan ilg‘or qadam-la yuksalmoqdalar. Xususan yaqin yillarda ham ular eng yuqori natijalarga erishmoqdalar. Shuningdek, yurtimizning salohiyatli harbiy merganlarimiz xalqaro musobaqalarda ishtirok etib faxrli 1-o‘tinni oldi, bu tadbir joriy yilning 20-30-may kunlari bo‘lib o‘tdi. Bu musobaqada 11 ta davlatdan 36 ta jamoa ishtirok etdi. Mamlakatimizning sadoqatli harbiylari bir nechta shartlarda 5marotaba rekord natijalarni qayd etdilar. Bundan bir yil avval yani 2023-yilda Turkiyada bo‘lib o‘tgan "Eng ilg‘or mergan" xalqaro musobaqasida ham faxrli 2-o‘rinni egalladi. Barchamizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi armiyasi dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingida 62-o‘rinni qo‘lga kiritdilar, bu esa mamlakatimizda ma‘naviyatli, madaniyatli yoshlarning saflari kengayib o‘sib borayotganidan dalolatdir. Shuningdek, davlatimiz rahbarining aytganlaridek yoshlarimizning madaniyatli va marifatli bo‘lishlari, ularning oilalarida yoshliklaridan, bog‘cha, davrlaridan iqtidorli yoshlarni voyaga yetishida har bir inson mas‘uldir. Shunday bo‘lgandagina bolalarni madaniyatli qilib, ulug‘ marralarga yetishishlari, uchun yoshligida olgan ilmlarini kelajakda o‘z hayot tarzlariga qo‘llasalar samarasi alo darajada bo‘ladi. Zero so‘z mulkingning sultoni hazrat Alisher Navoiy ham "Yoshlikda o‘rgangan ilm, toshga o‘yilgan naqshdir" deb bejizga aytmaganlar.

Bizning yoshlarimiz barcha sohalar qatori til o‘rganish sohasida ham sezilarli darajada yuksaklarga ko‘tarilib, chet ellarda o‘qib, malaka oshirib kelmoqdalar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Internet, Telegram, Whatsapp, YouTube, Instagramm kabi internet tarmoqlaridan unumli foydalangan holda dunyoning turli mamlakatlarida ro‘y berayotgan ma‘lumotlardan xabardor bo‘lib, o‘zlari uchun kerakli xulosa chiqarib, orttirgan tajribalarini hayotlarida qo‘llamoqdalar. Shu bilan bir qatorda bizning ma‘rifatga oshno qalbli, kitobsevar yoshlarimiz bir qancha kitoblarini o‘qishlari davomida bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida ham PDF shaklida o‘qib juda ko‘p marotaba tashkil etiladigan "Yosh kitobxon" tanlovlarida qatnashib ulkan mukofotlarga sazovor bo‘lib kelmoqdalar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda har bir yoshlarimiz yuksak-yuksak natijalarga erishib kelmoqdalar, bu esa ularning sezilarli darajada izlanayotganlaridan dalolatdir. Hozirgi kunda yurtimizda har bir soha rivojlanayotgan bo‘lib, unga faqatgina ma‘naviyatli yoshlarimiz faoliyat yuritishga xosdirlar. Buning uchun esa ular tunu-kun izlanib harakat qilishlari, mamlakatning rivoji uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishlari zarurdir. Shuningdek uchun ma‘naviyatli yoshlar kelajagimizning porloq kelajagidir! Biz bunday yoshlarimiz bilan faxrlanamiz!

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O‘zbekistonning siyosiy islohotlari" Shavkat Mirziyoyev,
2. "Ta’lim va ilm-fanning rivojlanishi " Shavkat Mirziyoyev,
3. "Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Shavkat Mirziyoyev,
4. "Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch" Islom Karimov,
5. "Daryo.uz internet nashri".